

“TASDIQLANGAN”
“KAFIL SUG'URTA” AJ
Boshqaruv raisi F.A.Artikov
2024- yil 5- yanvar

**BOLALARNI MAKTAB TA'TILI DAVRIDA SOG'LOMLASHTIRISH
OROMGOHLARIDA, PANSIONATLARIDA VA BOSHQA TASHKILOTLARDA
DAVOLANISH, DAM OLISH DAVRIDA SUG'URTA QILISH BO'YICHA OMMAVIY
OFERTA**

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) “KAFIL-SUG'URTA” AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi jismoniy shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yullangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bulib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Ofepta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

- mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;
- arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili (agar bor bo'lsa) va mobil telefon raqami mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritish Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 933-moddasiga muvofiq sug'urta sirini saqlashga javobgar bo'ladi. «Oferta», «Sug'urta shartnomasi» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur qoidalar Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlari hamda “KAFIL SUG'URTA” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi yoxud shuning natijasida vafot etgan taqdirda Sug'urtalangan shaxsga Sug'urta summasi doirasida sug'urta to'voni to'lanishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining tomonidan berilgan Litsenziyasi asosida I-klassga oid Sug'urta turi hisoblanadi.

1.2. Mazkur qoidalar shartlari asosida O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan muamala layoqatiga ega bo‘lgan fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning voyaga yetmagan farzandlarini maktab ta‘tili davrida sog‘lomlashtirish oromgohlarida, pansionatlarida va boshqa tashkilotlarda davolanish, dam olish davrida baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta shartnomasi tuzilishi mumkin.

1.3. Sug‘urta muddati davomida mazkur qoidada ko‘zda tutilgan Sug‘urta hodisasi yuz berganda Sug‘urtalovchi Sug‘urtalangan bolaga yoki Sug‘urta qildiruvchiga shartlashilgan Sug‘urta summasi doirasida sug‘urta tovonini to‘lash majburiyatini oladi.

1.4. Mazkur Ofertada ishlatiladigan atamalar mazmuni:

Sug‘urtalovchi	O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan Litsenziyasi asosida ish olib borayotgan «KAFIL SUG‘URTA» aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy bo‘limlari;
Sug‘urta qildiruvchi	Sug‘urtalovchi bilan Sug‘urta shartnomasini tuzgan O‘zbekiston Respublikasining muomala layoqatiga ega bo‘lgan fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda O‘zbekiston hududida faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar;
Sug‘urta polisi	Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan real vaqt rejimida shakllantirilgan seriya, raqamiga ega bo‘lgan sug‘urta qilish amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;
Sug‘urta shartnomasi	Sug‘urtalovchi bilan Sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida tuzilgan ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari to‘g‘risidagi bitim;
Sug‘urta mukofoti	Sug‘urta qildiruvchi ushbu Qoidada belgilangan tartib va muddatda sug‘urta uchun Sug‘urtalovchiga to‘lashi shart bo‘lgan to‘lov;
Sug‘urta summasi	Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan, Sug‘urtalovchining har bir Sug‘urtalangan shaxsga nisbatan sug‘urta tovonini/sug‘urta to‘lovini amalga oshirish bo‘yicha eng yuqori majburiyatlari hajmini ifodalovchi pul mablag‘lari miqdori;
Sug‘urta tovonini	Sug‘urta hodisasi yuz berganda Sug‘urtalangan yoki manfaatdor shaxsga Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta summasi doirasida to‘lanadigan pul;
Sug‘urta muddati	Sug‘urta shartnomasining yoki polisining amal qilish muddati;
Sug‘urta hodisasi	Sug‘urtalangan shaxsning sog‘lig‘iga zarar yetish yoki uning natijasida vafot etish hodisasi (baxtsiz hodisa);

2. SUG‘URTA SUBYEKTI

Sug‘urtalovchi bilan Sug‘urta shartnomasini tuzgan muomala layoqatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar Sug‘urta sub‘ekti hisoblanadi.

3. SUG‘URTA OBYEKTI

Sug‘urtalangan bolalarning oromgohda dam olayotgan vaqtida hayoti va sog‘lig‘iga bog‘liq qonunlarga zid kelmaydigan moddiy manfaatlari Sug‘urta obyektini hisoblanadi.

4. SUG‘URTA HODISASI

4.1. Quyidagilar Sug‘urta hodisasi hisoblanadi:

Baxtsiz hodisa natijasida Sug‘urtalangan bolalarni sog‘lig‘iga zarar yetishi yoki ularning vafot etishi Sug‘urta hodisasi hisoblanadi va shu tufayli Sug‘urtalovchining Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urtalangan bolaning olgan jarohati tufayli Sug‘urta pulini ma‘lum qismini, vafot etganda esa Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urta pulini to‘lash majburiyati kelib chiqadi.

Sugʻurtalangan bolalarni hohish irodasiga bogʻliq boʻlmagan holda Sugʻurtalangan bolalarning tanasi jarohatlanishiga, tana aʼzolarini ishlash funksiyasini oʻzgarishiga yoki vafot etishiga olib keluvchi tabiatda boʻladigan hodisalar, portlash, kuyish, moʻzlab qolish, choʻkish, (shamollashi orqali, kasallik tufayli vafot etishdan tashqari), tok va chaqmoq urishi, hayvonlarni hujum qilishi, biror bir narsani yoki Sugʻurtalanganing oʻzi tushib ketishi, yovuz niyatli odamni hujumi, toʻsatdan boʻgʻilish, tasodifan nafas olish yoʻliga biror narsa tiqilib qolishi, zaharli oʻsimliklar, kimyoviy moddalar taʼsirida kuchli zaharlanish, sifatsiz oziq-ovqat (sanoat yoki maishiy) mahsulotlar, dorilar bilan tasodifan zaharlanish hamda transport vositalarining agʻdarilishi yoki ularning harakatlaridagi yoʻl transport hodisalarida olingan jarohatlar, xususiyati, vaqti va joyi aniqlanishi mumkin boʻlgan tashqi kuchlarni (jismoniy, kimyoviy, texnik va boshqalarning) toʻsatdan taʼsir etish omillari, tasodifan suyak sinishi, chiqishi, tish sinishi, kuyish, notoʻgʻri tibbiy manupulyatsiya natijasida aʼzolarning uzilishi (jarohatlanishi, vafot etishi) yoki ularning olib tashlanishi, kana ensefaliti yoki emlashdan keyingi ensefalit (ensefalomiyelit), poliomiyelet, gematogen osteomiyelet bilan kasallanish Sugʻurta hodisasi hisoblanadi.

4.2. Quyidagilar Sugʻurta hodisasi hisoblanmaydi:

a) barcha hildagi oʻtkir surunkali va nasliy kasalliklar (shu jumladan toʻsatdan aʼzolari kasallanishi, kasallikni nasldan naslga oʻtish natijasida uni rivojlanishi), anafilaktik shok va oziq - ovqat toksikoinfeksiyasi (salmonellez, ichburugʻ va boshqalar);

b) Sugʻurta shartnomasi amalda boʻlgan paytda yuz bergan Sugʻurta hodisasi tufayli olib borilgan davolash bilan bogʻliq boʻlmagan kasallikni davolash (tashxis qoʻyish) va oldini olish tadbirlari (dori yuborish);

v) tergov yoki sud tashkilotlari tomonidan qasddan sodir etilgan deb topilgan Sugʻurtalangan bolaning oʻziga qasddan oʻz hatti-harakatlari natijasida yetkazgan jarohati yoki vafot etishi;

g) Sugʻurtalangan bola alkogolli ichimlik, giyohvand yoki zaharli moddalar taʼsirida mast holatda ichki yonuv dvigatelli yoki elektr dvigateliga ega boʻlgan har qanday oʻzi yurar vosita (avtomashina, motosikl, motoroller, moped, motorli velosiped va hakozolar), kater yoki motorli qayiqni boshqarishi, shuningdek ana shu vositalarni boshqarishni spirtli ichimlik, giyohvand va zaharli moddalar taʼsirida mast holatda boʻlgan shaxsga berish oqibatida yuzaga kelgan jarohat yoki oʻlim;

Mazkur bandning v, g, d - kichik bandlari 14 va undan yuqori yoshdagi Sugʻurtalanganlarga taaluqli;

d) yadro portlashi, radiatsiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish taʼsirida, harbiy harakatlar yoki harbiy mashqlar, fuqarolar urushi, ish tashlash, halq koʻtarilishini har hil turlari oqibatida olingan tan jarohatlari yoki oʻlim.

5. SUGʻURTA SHARTNOMASINI TUZISH TARTIBI VA MUDDATI

5.1.1. Mazkur sugʻurta shartnomasi Sugʻurtalovchi tomonidan Sugʻurta qildiruvchiga sugʻurta xizmatlarini sotish va koʻrsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat boʻlib hisoblanadi;

5.1.2. Sugʻurta shartnomasi (sugʻurta polisi) Sugʻurta qildiruvchi tomonidan Sugʻurtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda takdim etilgan maʼlumotlar asosida shakllanadi;

5.1.3. Sugʻurta qildiruvchi elektron arizaning toʻldirilishi shart boʻlgan kataklarini mustaqil va arizada koʻrsatilgan hujjatlarning aslidagi maʼlumotlarga qatʼiy muvofiq holda toʻldiriladi;

5.1.4. Sugʻurta qildiruvchi arizada koʻrsatilgan hujjatlarning ishonchliligi va asliga toʻgʻri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada koʻrsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq boʻlmaganida sugʻurta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sugʻurtalovchi sugʻurta toʻvoni toʻlashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi boʻladi;

5.1.5. Arizada koʻrsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning maʼlumotlari avtomatik ravishda Sugʻurta shartnomasiga (Sugʻurta polisi) kiritiladi.

5.1.6. Sugʻurta qildiruvchi Sugʻurtalovchining axborot tizimi yordamida sugʻurta summasini mustaqil aniqlaydi, Sugʻurtalovchining axborot tizimi esa Sugʻurta qildiruvchi tomonidan koʻrsatilgan maʼlumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sugʻurta mukofoti summasini shakllantiradi hamda Sugʻurta qildiruvchi sugʻurta mukofotining shakllantirilgan summasiga rozi boʻlgan taqdirda, uni toʻlashga qadar Sugʻurta qildiruvchi mazkur Qoida matni bilan tanishish majburiyatini oladi.

5.1.7. Qoidada taklif qilinadigan sug'urta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligini tasdiqlaydi va Sug'urta shartnomasini tuzish uchun arizani (bundan buyon matnda Ariza deb yuritiladi) Sug'urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to'ldirishga kirishadi.

5.1.8. Arizani to'ldirishda Sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni va sug'urta hodisasi yuz berishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini (sug'urta tavakkalchiligini) ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asliga qat'iy muvofiqlikda ko'rsatilishi kerak.

5.1.9. Ariza to'ldirilganidan keyin, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasidan foydalanishga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

5.1.10. Sug'urta shartnomasi taraflari Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta polisining olinishi Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

5.1.11. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

5.2. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha to'lovni amalga oshirish tartibi:

5.2.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

5.2.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

5.2.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi elektron to'lov tizimini tanlashi zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish uchun tanlangan to'lov tizimining saytiga avtomatik tarzda qayta yo'llanadi;

5.2.4. Sug'urta polisi uchun sug'urta mukofoti to'langanligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, Sug'urta qildiruvchining kiritgan telefon raqamiga Sug'urta polisining seriyasi, raqami va Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchini xabardor qiladi. SMS xabarda sug'urta polisini yuklab olish imkonini beruvchi havola mavjud bo'ladi.

5.2.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

5.2.6. Sug'urta mukofotini bank kartasi bilan to'lash bevosita Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) - karta egasi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi.

5.2.7. Sug'urtalovchining axborot tizimida «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Qoida shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

5.3. Sug'urta muddati oromgohdagi, pansionatdagi dam oladigan kuniga qarab aniqlanadi.

Izoh: Sug'urta mukofotini to'lagandan so'ng, bola oromgohga ketish joyida e'lon qilingan paytidan boshlab, (shaxsiy yoki ijara) transport vositasidan foydalanganligidan qat'iy nazar oromgohdan kelib va ketish joyini tark etgunga qadar bola Sug'urtalangan hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchilar ota-onalar, qarindosh-urug'lar yoki tashkilotlar bo'lishi mumkin.

5.4. Ruhiy yoki og'ir nerv kasalligi, tutqanoq, ko'zi ojizlik, karlik, falaj kasalligining har hil turlari bilan kasallangan bolalar va kasalligi tufayli 1 guruh nogironi bo'lgan bolalar foydasiga Sug'urta shartnomalari tuzilmaydi.

5.5. Sug'urta shartnomasini tuzish istagini bildirgan shaxs asab yoki ruhiy kasalligi tufayli asab va ruhiy kasalliklarni davolash dispanseri hisobida tursa, ular bilan Sug'urta shartnomasi tuzilmaydi.

5.6. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi bilan Sug'urta shartnomasini tuzish davrida ofertaning

ayrim bandlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan qo'shimchalar, o'zgartirishlar kiritish va chiqarib tashlash xuquqiga ega.

6. SUG'URTA SUMMASI, SUG'URTA MUKOFOTI MIQDORI VA UNI TO'LASH TARTIBI

6.1. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, uning eng kam miqdori 20 000 000,00 (yigirma million) so'm miqdorida bo'ladi. Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi.

6.2. Sug'urta tarifi Sug'urtalangan shaxsning oromgoh hududida bo'lgan davri uchun 0,02 foiz miqdorida belgilanadi.

6.3. Sug'urta mukofoti to'lovi Sug'urta qildiruvchi bank kartasi bilan bevosita karta egasi tomonidan amalga oshiriladi. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi. Sug'urta mukofoti qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi.

6.4. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta mukofotini oromgoh hududiga kirish huquqini beruvchi chipta yoki hujjat olayotgan bir vaqtni o'zida hujjatda belgilangan bolaning oromgohga kirishni boshlanish vaqtidan kechikmay to'laydi.

7. SUG'URTA SHARTNOMASINI (SUG'URTA POLISINI) KUCHGA KIRISHI VA UNI BEKOR BO'LISHI

7.1. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)ni amal qilish muddati Sug'urtalangan shaxsning oromgoh hududida bo'lgan vaqti bilan chiptaga asosan chegaralanadi.

7.2. Sug'urta polisining amal qilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda bekor qilinadi.

7.3. Polis Sug'urta qildiruvchining yozma arizasiga binoan istalgan vaqtda muddatdan oldin bekor qilinishi mumkin.

7.4. Sug'urta mukofotini to'liq/qisman qaytarish Sug'urta qildiruvchi tomonidan Polis Sug'urtalovchiga qaytarilishi sharti bilan hisobvaraqqa (plastik kartaga, bankdagi hisobvarag'iga yoki talab qilib olinadigan hisobvaraqqa) pul mablag'larini bir yo'la o'tkazish yo'li bilan quyidagi tartibda va holatlarda amalga oshiriladi:

7.4.1. Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta polisida ko'rsatilgan Polisning amal qilish muddati boshlanishidan avval sug'urta qilishdan voz kechish haqida ma'lum qilsa – Sug'urtalovchi unga to'langan sug'urta mukofotini to'liq hajmida qaytaradi.

7.4.2. Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta polisida ko'rsatilgan Polisning amal qilish muddati boshlanganidan so'ng sug'urta qilishdan voz kechishi haqida ma'lum qilsa – Sug'urtalovchi unga to'langan sug'urta mukofotini tugamagan sug'urta davri uchun belgilangan hajmida qaytaradi.

7.5. Sug'urta mukofoti quyidagi holatlarda qaytarilmaydi:

7.5.1. Ushbu Qoidada ko'rsatilgan sug'urta davri mobaynida sug'urta hodisasi ro'y berib, Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini bajargan yoki bajarayotgan bo'lsa;

7.5.2. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri tugagandan so'ng, sug'urta qilishdan voz kechish haqida ma'lum qilganda.

7.6. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) quyidagi xollarda o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi:

a) oromgohda dam olish huquqini beruvchi chipta shartlariga ko'ra Sug'urtalangan shaxsning oromgoh hududida bo'lish vaqti tugaganda;

b) Sug'urta hodisasi hisoblanmagan holda Sug'urtalangan shaxsning vafot etishi;

v) Sug'urta hodisasi tufayli Sug'urtalangan shaxsning vafot etganligi uchun Sug'urta to'voni to'langanda.

8. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) Sug'urta qildiruvchini Sug'urta qoidalar bilan tanishtirish;

b) Sug'urta qildiruvchiga (Sug'urtalangan bolaga) Sug'urta mukofoti to'langandan so'ng 1 kun muddatdan kechikmay Sug'urta polisini berish;

v) Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qildiruvchiga (Sug'urtalangan bolaga) Sug'urta

qoidalarida belgilangan muddatda va tartibda (kerakli hujjatlarni 3 kun ichida rasmiylashtirgandan so'ng) Sug'urta tovonini amalga oshirish;

g) Sug'urta qildiruvchiga nisbatan maxfiylikni ta'minlash;

d) Sug'urta tovonni to'lovi rad etilganda Sug'urta qildiruvchiga yozma ravishda xabar qilish;

e) Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta shartnomasi muddati davomida Sug'urtaga oid maslahatlar berish.

8.2. Sug'urtalovchining xuquqlari:

a) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng Sug'urtalovchiga bila turib (sog'liq va Sug'urta xavfiga oid) yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, Sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topish;

Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishga yoki qo'shimcha Sug'urta mukofotini to'lashga qarshi bo'lsa, Sug'urtalovchi fuqarolik qonunlarida ko'zda tutilgan tartibda Sug'urta shartnomasini bekor qilish;

b) Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda Sug'urtalovchi Sug'urtalanayotgan bolani sog'lig'ining haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirish;

v) baxtsiz hodisa qonunga zid ravishda bog'liq bo'lsa (nimaga bog'liq bo'lsa), tergov olib boruvchi qidiruv sud tashkilotlaridan belgilangan tartibda hujjatlar olish;

g) Sug'urtalovchi o'ziga qarashli shifokor-ekspertni jabrlangan Sug'urtalangan bolaning sog'lig'ini holati va kasallik tarixini o'rganish uchun yuborish;

d) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalanadigan bolalarning ro'yxatiga mazkur qoidaning 4.2.-bandida ko'zda tutilgan bolalarni kiritganda hamda Sug'urtalangan bolani sog'lig'ini holatini Sug'urtalovchiga qarashli shifokor - ekspertni tekshirishiga yo'l qo'ymasa, Sug'urtalovchi Sug'urta tovonini to'lashni rad etish;

e) Sug'urtalangan bolalarning Sug'urta xavfi ehtimoli bor sharoitlarda sanoat sanitariyasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilishlarini tekshirish;

z) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda Sug'urta mukofotini to'lamagan taqdirda Sug'urtalovchi shartnomani bekor qilish;

i) Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuzaga kelishida aybdor shaxslarga nisbatan to'langan pulni undirish uchun sudda da'vo qo'zg'atish.

8.3. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

a) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta mukofotini Sug'urta shartnomasida belgilangan vaqtda to'lash;

b) Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi bolani foydasiga shartnoma tuzilayotganda Sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, bu o'zgarishlar Sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilish;

v) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtdan 10 (o'n) kundan kechikmay Sug'urtalovchini yoki uning agentini yozma ravishda xabardor qilish;

g) Sug'urtalanganlarning ro'yhatiga o'zgartirish kiritganda yozma ravishda Sug'urtalovchiga xabar qilish;

d) zarur hollarda jabrlangan Sug'urtalangan bolaning sog'lig'ini holatini tekshirishga va kasallik tarixini o'rganishga Sug'urtalovchiga qarashli shifokor - ekspertga ruxsat berish;

e) Sug'urta shartnomasining shartlarini maxfiyligini sahlash.

8.4. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

a) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchidan Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urtaga doir maslahatlar olish;

v) Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda Sug'urta shartnomasiga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish;

g) Sug'urtalovchi Sug'urta tovonini yoki Sug'urta pulini to'lashni rad etganda unga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish yo'li bilan e'tiroz bildirish.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Mazkur Oferta asosida tuzilgan Sug'urta shartnomasi shartlarini bajarmaganlik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

10. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TARTIBI

10.1. Mazkur Oferta asosida tuzilgan Sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lov Sug'urta qildiruvchi bilan Sug'urta shartnomasi tuzgan Sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladi.

10.2. Sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urta tovonini olish uchun Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi lozim:

- sug'urta qildiruvchidan Sug'urtalovchiga ariza;
- sug'urta polisi;
- tashxisi ko'rsatilgan holda Sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi davolash muassasasining ma'lumotnomasi;
- zarur hollarda rentgen surati, rentgen suratida Sug'urtalangan bolaning ismi, sharifi, yoshi, tekshirilgan sana va raqami ko'rsatilgan yozuv bo'lishi kerak;
- tergov tashkilotlarining hujjatlari va boshqalar;

10.3. Sug'urtalangan bolaning yumshoq to'qimalari, qulog'i, ko'zi, siydik, jinsiy a'zolari shikastlanganda Sug'urtalovchi shikastlanish oqibatlarini aniqlash maqsadida uni tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun mutaxassis shifokor huzuriga yuborishi lozim.

Sug'urtalangan bolaning ko'rish yoki eshitish a'zolari jarohat olgan bo'lsa, ko'rish va eshitish a'zolarini jarohatdan oldingi va keyingi holati to'g'risidagi ma'lumot tibbiy muassasadan olinadi.

10.4. Sug'urtalangan bola vafot etganda Sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchiga to'lanadi. Sug'urtalanganing vafoti tufayli Sug'urta qildiruvchi ariza bilan birga Sug'urta polisini va Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan berilgan o'limi to'g'risidagi guvohnomani notarial idoradan tasdiqlangan nusxasini beradi. Sug'urta tovonini oluvchining bankdagi omonatiga o'tkazish, bankga chek berish yoki aloqa vositasi orqali to'lanadi.

Balog'at yoshiga yetmaganlarga ularning bankdagi omonatiga pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi va bu haqda vasiylik va homiy shaxsga yoki tashkilotlariga ma'lum qilinadi.

10.5. Sug'urta shartnomasi kuchda bo'lgan davrda Sug'urtalangan bola olgan jarohati tufayli Sug'urta hodisasi ro'y bergan kundan bir yil ichida vafot etsa, Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta tovonini to'lanadi.

10.6. 3.1.-bandda nazarda tutilgan Sug'urta hodisalari munosabati bilan ilgari ma'lum miqdorda Sug'urta tovonini to'langan bo'lsa, bu pul to'lanadigan Sug'urta tovonidan ushlab qolinadi.

Sug'urta qildiruvchidan Sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizani olgandan so'ng to'lashga qapop qabul qilish uchun kerakli hujjatlarni 3 kun ichida so'rab olish lozim.

Sug'urtalovchiga yuz bergan jarohat tufayli Sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi ariza kelib tushgandan so'ng, ushbu ishga birlashtirilgan mas'ul xodim Sug'urtalangan jarohat olgan kunini (kun, oy, yil) aniqligi, jarohatni qaysi sabab va qachon kim tomonidan olgan, qachon va kim tomonidan yordam ko'rsatilgan, jarohatdan so'ng davolanganmi va qayerda, davolanish muddati va boshqalarni to'g'ri va to'liq to'ldirilganligini tekshiradi.

Shuningdek, arizada to'lanishi kerak bo'lgan Sug'urta tovonini o'tkazish uchun bankning nomi va Sug'urtalanganing bankdagi omonati raqami ko'rsatiladi.

10.7. Sug'urtalangan bolaga nisbatan qasddan tan jarohati yetkazilsa va buning natijasida u vafot etsa, Sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchiga to'lanadi.

Sug'urtalovchi Sug'urtalanganing vafoti munosabati bilan Sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizani olgandan so'ng bor hujjatlarni tekshiradi. Sug'urtalangan vafot etganda Sug'urta tovonini to'lashga Sug'urtalovchi mustaqil ravishda qapop qabul qiladi.

10.8. «Sug'urta tovonini ro'yhatga olish kitobi»ga qayd qilingan sana va raqam Sug'urta polisida va to'lash to'g'risidagi arizada ko'rsatiladi.

Sug'urta hodisasi ro'y bergan paytda Sug'urta shartnomasi kuchdaligini tasdiqlovchi hujjatlar hisob-kitob bo'limidan olinadi.

10.9. Sug'urta shartnomasi kuchga kirgunga qadar va Sug'urta muddati tugagandan so'ng Sug'urtalangan bola jarohat olganda Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga murojaat qilsa,

Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchidan hech handay hujjatlar so'ramay 3 kun muddat ichida Sug'urta tovonini to'lamaslik sabablarini to'liq tushuntirgan holda yozma ravishda rad javobini beradi.

Sug'urta qildiruvchidan Sug'urta tovonini to'lab berish to'g'risidagi ariza olingan kuniyoq «Sug'urta tovonini ro'yhatga olish kitobi»ga qayd qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urta tovonini to'lab berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilib, Sug'urta polisini taqdim qilmasa, Sug'urta shartnomasi aniq tuzilganligini tekshirgandan so'ng to'lab beriladi.

Sug'urta qildiruvchining hayoti va sog'lig'iga zarar yetganda Sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan "Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonini aniqlash va to'lash tartiblari to'g'risida"gi uslubiy ko'rsatma asosida to'lanadi.

Sug'urta tovonini Sug'urtalovchi barcha kerakli hujjatlarni olgandan so'ng 3 kun ichida to'laydi. Sug'urtalovchining aybi bilan Sug'urta tovonini to'lashda kechiktirilgan har bir kun uchun Sug'urta qildiruvchiga to'lanishi kerak bo'lgan puldan 0,1 foiz miqdorida jarima (penya) to'lanadi, ammo uning miqdori to'lanadigan Sug'urta tovonining 10 (o'n) foizidan oshmasligi lozim.

Sug'urta tovonini to'langandan so'ng Sug'urtalash to'g'risidagi arizaga, Sug'urta polisining orqa tomoniga qachon va qancha miqdorda Sug'urta tovonini to'langanligi va "Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonini aniqlash va to'lash tartiblari to'g'risida"gi uslubiy ko'rsatma jadvalining qaysi bandiga asosan to'langanligi to'g'risidagi yozuv kiritilishi lozim.

10.10. Umumiy to'langan pul Sug'urta summasidan oshmasligi kerak.

10.11. Sug'urta tovonini olish xuquqiga ega Sug'urta qildiruvchi shu pullarni olish uchun istagan shaxsga ishonchnoma berishi mumkin. Ishonchnomadagi Sug'urta qildiruvchining imzosi u ishlaydigan korxonada, yashash joyidagi uy joylardan foydalanish idorasi, yotib davolanayotgan davolash muassasasining bosh shifokori, xizmat qilayotgan harbiy qism komandiri, qidiruv yoki boshqa ekspeditsiya boshlig'i, tegishli hokimiyat yoki notarial idora tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

10.12. Sug'urta tovonini to'lashga hujjatlarni rasmiylashtirish va tayyorlash Sug'urtalovchini buyrug'i bilan biriktirilgan shtat xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchi Sug'urtalanganning tibbiy tekshiruvdan o'tganligi to'g'risidagi dalolatnomani olgandan so'ng, uni to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilganligi va yo'qotgan mehnat layoqatiga tayinlangan foizni to'g'riligini tekshiradi.

10.13. Sug'urta tovonini to'lash masalasini ko'rib chiqish va to'lash to'g'risida qapop qabul qilishda asos bo'lgan hujjatlar Sug'urta to'lovlarini ko'rib chiqish komissiyasida saqlanadi yoki hisob-kitob bo'limi hujjatlari bilan birgalikda tikiladi.

10.14. Sug'urtalash shartnomalari bo'yicha hujjatlar alohida ish qog'ozida tikilgan holda hisob-kitob bo'limida kirim chiqim daftarlari kabi saqlanadi va pullik hujjatlardek (butun Sug'urta muddati davomida va Sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi qapop qabul qilingan yoki to'lov rad etilgan kundan 5 yildan kam bo'lmagan muddat davomida) bir xil saqlanadi.

11. SUBROGASIYA

11.1. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida Sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sug'urta qildiruvchi va zarar uchun javobgar bo'lgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

11.2. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalovchiga o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

11.3. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug'urta qildiruvchining aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va ortiqcha to'langan Sug'urta tovonini qaytarilishni talab qilishga haqli bo'ladi.

12. SUG'URTA SHARTNOMASIDAN KELIB CHIQUVCHI TALAB VA NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

Mazkur oferta asosida tuzilgan Sug'urta shartnomasidan, Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar o'zaro kelishuvga asosan, kelishish imkoni bo'lmasa O'zbekiston Respublikasida amaldagi Qonunlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.